



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MAHALLALARI UYUSHMASINING
QARORI**

**O'quvchilar davomatini yuritish, ta'limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va
umumi o'rta ta'lif maktablarini huquqbuzarlik holatidan kelib chiqib
toifalash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-martdag'i "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son Qaror ijrosini ta'minlash, umumi o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilar davomatini yuritish, nazorat qilish, majburiy ta'limga jalb etish va o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda maktablarni huquqbuzarlik holatidan kelib chiqqan holda toifalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi hamda Mahallalar uyushmasi qaror qildi:

1. O'quvchilar davomatini yuritish, ta'limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumi o'rta ta'lif maktablarida huquqbuzarliklar holati yuzasidan toifalarga ajratish to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Maktabgacha va maktab

Ichki ishlar vaziri

ta'lifi vaziri
o'rindbosari

F. Imrnayev

Toshkent sh.
2025-yil " 7 "

may
25/5 - son



o'rindbosari

B. Abdullayev

Toshkent sh.,
2025-yil " 7 "

may
28/5 - son

Mudofaa vaziri

o'rindbosari

X. Qarshiyev

Toshkent sh.,
2025-yil " 7 "

may
28/5 - son

O'zbekiston mahallalari

uyushmasi raisi

o'rindbosari

D. Allayev

Toshkent sh.,
2025-yil " 7 "

may
08-06-17 - son



O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va O‘zbekiston
mahallalari uyushmasining
2025-yil “Y” may dagi
28/8/2025 19/8/2025 son qaroriga
ILOVA

**O‘quvchilar davomatini yuritish, ta’limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish
va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida huquqbuzarliklar holati yuzasidan
toifalarga ajratish to‘g‘risida**
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktablari (keyingi o‘rinlarda – maktab)da davomatni yuritish, o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga muntazam qatnashishini nazorat qilish, maktablarni huquqbuzarlik holatidan kelib chiqqan holda, “**qizil**”, “**sariq**”, “**yashil**” toifaga ajratish mezonlari va tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davomat – o‘quvchilarni muayyan ish-harakati, tadbirlarga (dars mashg‘uloti, o‘qish, to‘garak va shu kabilarga) doimiy ishtirok etish, qatnash;

darslarga ishtirok etmaslik – o‘quvchilarni darslar uchun belgilangan vaqtarda, shu jumladan kun, hafta davomida ishtirok etmaslik;

sababli dars qoldirish – sog‘lig‘i tufayli, tibbiy ma’lumotnomasi, olimpiada, musoboqalarda o‘quvchilarni ishtiroki, shu jumladan, oilaviy sharoiti va favqulodda holatlarda darsda ishtirok eta olmasliklarini o‘quvchi, ota-onasi yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar orqali maktab ma’muriyatini ma’lum qilish;

sababsiz dars qoldirish – o‘quvchi, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan sinf rahbarini ogohlantirmasdan, ruxsatsiz darsda qatnashmaslik;

muntazam (surunkali) dars qoldirish – sababsiz ravishda o‘quv haftasida ketma-ket 3 kun, shuningdek, bir oy mobaynida 10 kundan ortiq dars mashg‘ulotlariga qatnashmasligi;

“e-maktab” platforma – onlayn rejimda dars jadvallarini yaratish, o‘qituvchilar uchun dars rejalarini tuzish, o‘quvchilarning davomati, yutuqlari hamda statistik hisobotlarini elektron shakllarida yuritish;

“o‘s米尔” tadbiri – tarbiyasi og‘ir bo‘lgan maktab o‘quvchilari yonida olib yurishi taqiqlangan buyumlar (o‘tkir tig‘li jismlar, qimor o‘yinlari, tamaki, psixotrop, narkotik vositalari va boshqa), shuningdek noqonuniy avtotransport vositalarini boshqarish holatlarini aniqlash va chora ko‘rish;

“yashil” toifali maktab – hisobot davrida maktab o‘quvchilar tomonidan jinoyat sodir etilmagan bo‘lsa.

“sariq” toifali maktab – hisobot davrida maktab o‘quvchilar tomonidan bittadan ko‘p, uchtadan ortiq bo‘Imagan jinoyat sodir etilgan bo‘lsa.

“qizil” toifali maktab – hisobot davrida maktab o‘quvchilar tomonidan uchtadan ortiq bo‘lgan jinoyat sodir etilgan bo‘lsa.

3. O‘quvchilar davomati mazkur Nizomga muvofiq, ularning darslarda ishtirok etishlari va xulq-atvorlari bilan bog‘liq me’yorlar maktablarning ustavlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Mazkur Nizom jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, Prezident, ijod, ixtisoslashgan, nodavlat ta’lim muassalari, o‘rtamaxsus va professional ta’limga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-bob. Maktablarda o‘quvchilarning davomatini yuritish

5. O‘quvchilarning davomati sinf miqyosida fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari tomonidan “e-maktab” platforma orqali har kun belgilab boriladi.

6. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda o‘quvchilar davomatini yuritish, kunlik nazorat qilish ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

7. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari sababsiz darsga kelmagan o‘quvchilar ro‘yxatini inspektor-psixologlarga ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan bildirishnomaga asosan kunlik taqdim etadi.

8. Direktor, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinf rahbari, fan o‘qituvchisi tomonidan o‘quvchilarni darsda ishtiroklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z muddatida belgilamaslik hamda statistik hisobotlarni haqqoniy yuritilmaslik holatlari aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo‘llashga sabab bo‘ladi.

9. Noqonuniy diniy ta’lim olayotgan, xorijga chiqib ketgan, darslarga muntazam qatnashmayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlarni uch kun ichida inspektor-psixolog va tuman-shahar Ichki ishlar bo‘linmalarga xabar berishga maktab direktorlari shaxsan mas’ul ekanligi belgilanadi.

10. O‘quvchilarning davomatini maktab miqyosida muvofiqlashtirish ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosariga, o‘quvchilar davomatini to‘g‘ri yuritilishini ta’minalash hamda nazorat qilish direktor zimmasiga yuklatiladi.

3-bob. Maktablarga biriktirilgan (katta) inspektor-psixologlarning vazifasi

11. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi inspektor-psixologlarining bevosita xizmat joyi mакtab bo‘lib, mакtabga muntazam ravishda darsga kelmagan o‘quvchilarni ta’limga qaytaradi va mакtab hududida doimiy ravishda davomat

tadbirlarini o'tkazadi hamda davomat bilan bog'liq sodir etilgan nizoli vaziyatlarni hal etish choralarini ko'radi.

Ikki va undan ortiq bo'lган maktablarga biriktirilgan inspektor-psixologlar tomonidan haftasiga kamida bir marotaba har birida yuritishlari lozim.

12. Inspektor-psixolog davomat yuritishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosi tomonidan taqdim etilgan maktab bildirishnomasi asosida sababsiz va muntazam ravishda o'qishga kelmaydigan o'quvchilar ro'yxatini umumlashtirib boradi.

13. Inspektor-psixolog mакtabda dars mashg'ulotlariga qatnashmagan o'quvchilar ro'yxati asosida ma'lumotlarni ularni yashash manzili bo'yicha mahalla fuqarolar yig'ini raisi (keyingi o'rnlarda - MFY raisi)ga ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq xabarnoma yuboradi.

O'z navbatida, inspektor-psixologlar yoshlar yetakchilari bilan birgalikda o'quvchilarning yashash manziliga borib, ularning ota-onalari bilan profilaktik suhbat o'tkazadi (lozim bo'lganda, ogohlantirish xati yoki profilaktika inspektori tomonidan ijtimoiy profilaktika obyekti deb topilsa xulosa beradi) va darsga qaytarish chorasini ko'radi.

14. Maktab ma'muriyati bilan birga xorijiy davlatga ota-onasi (yaqinlari) bilan birga noqonuniy chiqib ketgan o'quvchilar ro'yxatini shakllantiradi, ularning ota-onasi yoki o'rnini bosuvchi shaxslar orqali xorijdagi manzili, bo'lish maqsadi, ijtimoiy ahvoli, farzandining xorijda ta'limga jalb etilganligiga aniqlik kiritadi.

15. Noqonuniy xorijga chiqib ketgan o'quvchilarni respublikaga qaytarish va ta'limga jalb etish yuzasidan tuman (shahar) huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlariga axborotnama kiritadi.

16. Sababsiz dars qoldiruvchi o'quvchilarning ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarga inspektor-psixolog tomonidan ikki marotaba ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq rasmiy ogohlantirish xati taqdim etadi.

17. O'zgarish bo'lмаган hollarda o'quvchining ota-onasiga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasiga ko'ra (ularning o'rnini bosuvchi shaxsni) javobgarlikka tortish chorasini ko'radi.

18. Katta inspektor-psixologlar tomonidan darslarga qaytarilgan o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, davomatni haqqoniy yuritmaslik yoki yolg'on axborot berish holatlari yuzasidan hududiy tuman (shahar) Maktabgacha va mакtab ta'lim bo'limlariga hamda Ichki ishlar vazirligining hududiy boshqarmalarga taqdim etib boradi.

19. O'quvchilar davomati hamda dars jarayonlarida sodir bo'lган har qanday noxush holatlar mакtab ma'muriyati hamda inspektor-psixolog ishtirokida kuzatuv kameralar orqali ko'rib chiqiladi.

20. Inspektor-psixologlar maktablardagi o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani rahbarlari bilan mashg‘ulotlarni tashkil etadi hamda o‘quvchi-yoshlarni harbiy ta’lim muassasalariga saralash ishlarini birgalikda olib boradi.

4-bob. Davomatni nazorat qilishda o‘zaro hamkorlik

21. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Mahallalar uyushmasi “maktab-mahalla-oila” tamoyili asosida o‘quvchilarini majburiy umumiy o‘rta ta’limga jalb etish va davomatni yaxshilashda o‘zaro hamkorlik qiladi.

Mahalladagi muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan MFY binosida va oilalalarida muhokamalar hamda profilaktik suhbatlar tashkil etiladi.

22. Tuman (shahar) huquqni muhofaza qilish organlari hamkorlikda maktab hisobida turib xorijda yurgan (u yerda ta’limga jalb etilmagan) o‘quvchilarini respublikaga qaytarish va ta’limga jalb etish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

23. Har oyda kamida bir marotaba viloyat, tuman (shahar) hokimliklari rahbarlar bilan “Rahbar va yoshlar uchrashuvlari”ni tashkil etish orqali maktab o‘quvchilar muammolari joyida hal etiladi.

24. Haftaning juma kunlari o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan tarbiya darslarida, II Odan biriktirilgan mas’ul rahbarlar ishtirok etadi va ular tomonidan huquqbazarliklarga tushuncha berish va oqibatlari yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklatiladi.

25. Ota-onalar majlislarida maktab ma’muriyati, mahalla yettiligi va inspektor-psixologlar ishtirokida o‘quvchilar davomati, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi, yurish-turishi, xulqi bilan bog‘liq masalalar muhokama etiladi.

4-bob. O‘quvchilarini ta’limga to‘liq jalb etish bo‘yicha choralar

26. Maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va o‘quvchilar tomonidan foydalanishini ta’minlash, o‘z o‘rnida mediasavodxonlikni rivojlantirish, xavfsiz internetdan foydalanish hamda kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantiriladi.

27. Majburiy ta’lim o‘rniga, o‘quvchilarning o‘quv markazlarida tahsil olishlarini oldini olish maqsadida maktablarda qo‘sishimcha fan to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

28. O‘quvchilarning ijodkorligini oshirish, bo‘sh vaqt va dam olishini tashkil etish, kasb-hunarga yo‘naltirish uchun maktablarda hunarmandchilik

va tikuvchilik to‘garaklari, musiqa va teatr klublari, shuningdek, axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha seksiyalar faoliyat yuritadi.

29. Ota-onalarni maktab hayotiga jalb etish maqsadida maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar tomonidan ma’naviy-ma’rifiy, ijodiy, ekologik, sport hamda ijtimoiy himoyaga muhtojlar holidan xabar olish tadbirlarini tashkil etish, ularning maktab bayramlarida oilaviy ishtirok etishini ta’minlash ishlari amalga oshiriladi.

5-bob. Maktablarda huqbazarliklarning barvaqt oldini olish va toifalarga ajratish tartibi.

30. Respublikaning barcha maktablari har oy yakuni bo‘yicha hisobot davrida sodir etilgan jinoyatlar tahlilidan kelib chiqib, “yashil”, “sariq”, “qizil” toifalarga ajratiladi.

31. “Yashil”, “Sariq”, “Qizil” toifadagi maktablarning ro‘yxatlari Ichki ishlar organlari viloyat, tuman-shahar voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha boshqarma va bo‘linmalari tomonidan yuritiladi.

32. Tayyorlangan hisobotlar, o‘rganish va tahlillarga muvofiq har o‘quv yilida viloyat Ichki ishlar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘lim hamda Mahallalar uyushmasi boshqarmalarining Qo‘shma qarori bilan, huquq-tartibot idoralarining boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, tuman (shahar) bo‘lim boshliqlari, jinoyatchilikni oldini olish va bolalarni huquqiy ongini oshirish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha ushbu maktablarga shaxsan biriktiriladi.

33. Biriktirilgan mas’ul rahbarlar maktablarda o‘tkaziladigan haftaning har juma kuni “Tarbiya soat” darslarida ishtirok etadi.

34. Maktablarga biriktirilagan mas’ullar o‘quvchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli profilaktik tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha kunlik tahlil olib boradi.

35. Inspektor-psixologlar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishida samaradorlik va inson omilisiz amalga oshiriladigan tadbirlar, Ichki ishlar vazirligi tomonidan “E inspektor-psixolog” axborot tizimi yaratilayotganligi inobatga olinsin.

7-bob. Yakuniy qoidalar

36. Maktablarda davomat yuritish ishlari mas’ullar tomonidan haqqoniy yuritilishi lozim.

37. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘quvchilar davomatini yuritish, ta’limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumiy o‘rtalim maktablarida huquqbuzarliklar holati yuzasidan toifalarga ajratish to‘g‘risida nizomga

I-LOVA

Umumiy o‘rtalim maktablarda o‘quvchilar davomatini yuritish SXEMASI

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar
I bosqich	Fan o‘qituvchi	<p>Fan o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilarning darsdagi davomatlari dars boshlanishida onlayn tarzda quyidagi tartibda qayd etiladi:</p> <p>S - sababsiz dars qoldirganini ko‘rsatish uchun; DQ - sababli dars qoldirilganligini ko‘rsatish uchun; KQ - darsga kechikishni ko‘rsatish uchun (baholash mumkin).</p>
II bosqich	Sinf rahbari	<p>O‘quvchilar davomati sinf rahbari tomonidan elektron sinf jurnalida quyidagi tartibda qayd etiladi:</p> <p>a) sababsiz: S - sababsiz dars qoldirganlar; M - muntazam dars qoldirayotganlar; Ch - xorijga ruxsatsiz chiqib ketganlar; Q - ta’lim olishga ota-onasi qarshilik qilayotganlar; NS - ota-ona nazoratsizligi sababli darsga kelmayotganliar;</p> <p>b) sababli: DQ - sababli dars qoldirilganligini ko‘rsatish uchun; K - kasallik sababli dars qoldirganligini ko‘rsatish uchun; KQ - darsga kechikib kelganligini ko‘rsatish uchun;</p>
III bosqich	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘ribbosari	<p>O‘quvchilar davomatini maktab miqyosida nazorat qilish va muvofiqlashtirish;</p> <p>maktabda o‘qitishning 1 smenasi bo‘yicha soat 10.00 ga qadar hamda 2 smenasi bo‘yicha soat 15.00 ga qadar biriktirilgan inspektor-psixologga davomat bo‘yicha rasmiy bildirishnomasi taqdim etish;</p> <p>sababsiz va muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar ro‘yxatini har kuni inspektor-psixologga taqdim etish;</p> <p>har kuni fan o‘qituvchilari hamda sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarning davomatini “e-Maktab” platformasi orqali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quvchilar davomati yuzasidan aniq ma’lumotlarni kiritish.</p>
IV bosqich	Inspektor-psixolog hamda MFY raisi	<p>Bildirishnomasi asosida sababsiz va muntazam ravishda o‘qishga kelmaydigan o‘quvchilar ro‘yxatini umumlashtirib borish;</p> <p>ro‘yxat asosida ma’lumotlarni o‘quvchilarni yashash manzili bo‘yicha MFY raisiga xabarnoma yuborish;</p> <p>o‘quvchilarning yashash manziliga borib, ularning ota-onalari bilan profilaktik suhbat o‘tkazish va darsga qaytarish chorasini ko‘rish;</p> <p>inspektor-psixolog tomonidan sababsiz dars qoldiruvchi o‘quvchilarning ota-onasi (ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga ikki marotaba rasmiy ogohlantirish xati taqdim etish;</p> <p>o‘zgarish bo‘lmagan hollarda, o‘quvchining ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxs)ni javobgarlikka tortish.</p>

O‘quvchilar davomatini yuritish, ta’limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida huquqbuzarliklar holati yuzasidan toifalarga ajratish to‘g‘risida nizomga

2-ILOVA

_____ tuman (shahar) inspektor-psixologi _____ ga
(unvoni, F.I.Sh.)

Bildirishnomma

20____ yilning ____ kuni, soat 10.00 ga (15.00 ga) qadar _____ tumanidagi _____ -sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi hisobidagi quyidagi o‘quvchilar **sababsiz (muntazam) darsga kelmaganliklari bois**, ularni ta’limga qaytarish so‘raladi:

1. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____;

2. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____;

3. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____;

4. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____;

5. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____.

**Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
direktor o‘rinbosari**

_____ (imzo)

_____ (F.I.Sh.)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar
davomatini yuritish va ta’limga jalb qilish ishlarni
nazorat qilish to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

_____ tumani “_____”
mahalla fuqarolar yig‘ini raisi
_____ga

Xabarnoma

20____ yilning ____ kuni, _____ tumani, “_____” mahallasida
yashovchi ____-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining quyidagi o‘quvchilari
sababsiz darsga kelmaganliklarini ma’lum qilamiz:

1. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____;

2. ____ -sinf o‘quvchisi _____,
yashash manzili: _____,
ota-onasining telefon raqami: _____.

Mazkur o‘quvchilarni hamkorlikda ta’limga qaytarish choralarini ko‘rish
uchun, oilasiga tashrif qilish yoki MFY binosiga taklif etish orqali ular bilan
birgalikda profilaktik suhbat (muhokama) o‘tkazilishida amaliy yordam
ko‘rsatilishini so‘raymiz.

_____ tuman (shahar)
inspektor-psixologi

(F.I.Sh.)

O‘quvchilar davomatini yuritish, ta’limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida huquqbuzarliklar holati yuzasidan toifalarga ajratish to‘g‘risida nizomga
4-ILOVA

RASMIY OGohlantirish

-son

Hurmatli _____ !

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq, Sizdan maktabining -sinfida -sonli umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchi farzandingiz maktabga ta’lim olish uchun muntazam borishini ta’minlab berish so‘raladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining **47-moddasiga asosan quyidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanganligi bo‘yicha ogohlantiramiz:**

– voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish sohasidagi vazifalarni bajarmaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima;

– takror sodir etilganda bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima;

– bolalarning majburiy umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishiga ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to‘sinqilishi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima;

– takroran sodir etilganda bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki **o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoq jazosi belgilangan.**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida umumiy o‘rta ta’lim majburiyligi, 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, **ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklarini eslatamiz.**

Inspektor-psixolog: _____ (_____)

“Qo‘shilaman”

Maktab direktori: _____ (_____)

Ogohlantirish xatini oldim: _____ (_____)